MARKAZIY OSIYODA YANGI REGIONALIZM TUTGAN O‘RNI VA AHAMIYATI

Mamatqulov Sardor
Jahon Iqtisodiyoti va Diplomatiyasi Universitetining
“Xalqaro munosabatlar va zamonaviy siyosiy jarayonlar”
yo‘nalishi magistranti

Annotatsiya. Maqolada Markaziy Osiyoda so‘nggi yillarda shakllangan hamkorlik modeli yangi regionalizm nuqtayi nazaridan tahlil qilinadi. Asosiy e’tibor 2017-yildan keyingi siyosiy muloqot, davlat rahbarlarining Maslahat uchrashuvlari, savdo va investitsiya aloqalari, chegara masalalarining hal etilishi, transport bog‘liqligi, suv-energetika hamkorligi hamda “Markaziy Osiyo+” formatlariga qaratiladi. Markaziy Osiyo davlatlari suverenitetni saqlagan holda muntazam maslahatlashuv, konsensus, ikki tomonlama kelishuvlar va muayyan sohalardagi amaliy loyihalarni birlashtirayotgan o‘ziga xos modelni shakllantirish bilan birga mintaqa ichidagi savdo, investitsiya va iqtisodiy bog‘liqlikning sezilarli oshishi kuzatilmoqda. Maqolada mintaqaviy hamkorlikning rivojlanishi, hamkorlikning institutsional asoslari, xalqaro munosabatlarda mintaqaning tutgan o‘rni hamda geosiyosiy o‘zgarishlarga nisbatan mintaqaning javob reflekslari o‘zaro bog‘liq holda tahlil qilinadi.

Kalit so‘zlar: Markaziy Osiyo, yangi regionalizm, mintaqaviy hamkorlik, Maslahat uchrashuvlari, O‘zbekiston, C5+1, iqtisodiy integratsiya, transport, suv-energetika, mintaqaviy subyektlik.

Kirish

Markaziy Osiyodagi regionalizm uzoq vaqt davomida muvaffaqiyatsiz integratsiya misoli sifatida talqin qilindi. Mustaqillikning dastlabki yillarida tashkil etilgan mintaqaviy tuzilmalar uzoq davom etmadi. Siyosiy va iqtisodiy jihatdan

shimolga bog‘langan holda davlatlar yangi suverenitetini mustahkamlashga ko‘proq e’tibor berdi. Mintaqa davlatlarida o‘zaro ziddiyatlar saqlanib qolgan, kuchli hamkorlik aloqalariga ham ega emas edi. Iqtisodiy tizimlar turlicha, tashqi siyosiy yo‘nalishlari ham bundan qolishmagan. Shu sababli mintaqani Yevropa Ittifoqi kabi formal integratsiya mezonlari bilan baholash ko‘pincha noto‘g‘ri xulosalarga olib kelgan. Bugungi tadqiqotlar Markaziy Osiyo davlatlarining 1990-yillardagi mintaqaviy hamkorlik faoliyatini muvaffaqiyatsiz harakatlar sifatida baholash to‘g‘ri emasligini ko‘rsatadi. O‘sha davrdagi uchrashuvlar davlatlar o‘rtasida tanishuv, siyosiy muloqot va mintaqaviy tartibning dastlabki me’yorlarini yaratgan. Boshqacha qilib aytganda bugungi regionalizm g‘oyaviy asoslari yaralishining ilk qadamlari sifatida ifodalash mumkin. Farq shundaki, hozirgi bosqichda hamkorlikning siyosiy muhiti va amaliy mazmuni ancha o‘zgargan. Hamkorlikka tomon yo‘nalgan jadal qadamlarni 2016-yildan keyin boshlanganini ko‘rishimiz mumkin. Nafaqat O‘zbekistonda balki mintaqa davlatlarida qo‘shnilarga nisbatan tashqi siyosati o‘zgardi. Chegaralar, savdo, transport, suv va energetika kabi masalalar bo‘yicha muloqot faollashdi. Bu jarayon Markaziy Osiyoda yangi regionalizmning shakllanishi sifatida izohlandi. Tadqiqotchilar fikriga ko‘ra, yangi sifatdagi ikki tomonlama munosabatlar mintaqaviy hamkorlik uchun tayanch yaratadi.

Yangi regionalizm tushunchasi Markaziy Osiyo integratsiyasini yaxshi tushunishda nazariy asos bo‘lib xizmat qiladi. Klassik integratsiya odatda umumiy institutlar, majburiy qoidalar, vakolatlarni milliy darajadan yuqori tuzilmalarga topshirish va umumiy bozor yaratish bilan bog‘lanadi. Markaziy Osiyoda esa bundan farqli ravishda boshqa siyosiy jarayonga guvoh bo‘lish mumkin. Bunda davlatlar siyosiy ta’sirga ega yoxud ichki masalalalarga aralasha oladigan mintaqaviy tashkilot tuzishdan cheklangan holda, suverenitetini qat’iy saqlab, qarorlarni konsensus asosida qabul qilib kelmoqda. Albatta biz mintaqaviy tashkilotlar mavjudligini inkor etmaymiz, balki Yevropa Ittifoqi modelidagi institutlashgan tashkilot prizmasi nuqtayi nazaridan

mintaqa bilan qiyoslab bo‘lmasligini ta;kidlamoqchimiz. Shunday bo‘lsada bu hamkorlik aloqalarining cheklanishiga sabab bo‘lmadi. Tadqiqotchilar davlat rahbarlarining Maslahat uchrashuvlarini tahlil qilishganda siyosiy uchrashuvlar mintaqaviy ko‘p tomonlama hamkorliklar sekin institutsionallashayotgan mexanizm sifatida baholashmoqda. Bu formatda o‘zaro tenglik ya’ni mintaqada turli katta og‘alarning bo‘lmasligi hamda kelishuvga asoslangan hamkorlik – turli nizolar va ochiq savollarga konsensus orqali javob topish amaliyoti ushbu jarayonlarning asosiy me’yorlari bo‘lib xizmat qiladi. Bu esa mintaqa davlatlari uchun siyosiy jihatdan maqbul hamkorlik shaklini yaratmoqda.

Ba’zi tadqiqotlarda bu holat “hybrid regionalism” va “soft institutionalization” tushunchalari orqali izohlanadi. Ya’ni mintaqada qattiq va yagona institutsional arxitektura yo‘q. Shu bilan birga, muntazam uchrashuvlar, milliy muvofiqlashtiruvchilar, sohaviy kengashlar va qo‘shma hujjatlar orqali asta-sekin barqaror koordinatsion tizim yaratilmoqda. Bu model davlatlarning siyosiy mustaqilligiga xavf solmasligi bilan ajralib tursa ajab emas. U muayyan masalalarda kelishilgan harakat qilish imkonini beradi. Ba’zi manbalarda esa Markaziy Osiyodagi tuzilma “decentralized cooperation architecture” sifatida tasvirlanadi. Unga ko‘ra O‘zbekiston ko‘proq pragmatik ikki tomonlama aloqalarni qo‘llaydi. Qozog‘istonda ko‘p tomonlama institutlarga moyillik kuchliroq. Shu farqning o‘zi ham mintaqaviy hamkorlikka to‘sqinlik qilmayapti. Shuningdek, Markaziy Osiyo regionalizmini uzoq vaqt tashqi aktorlar va tashqi institutlar ta’sirida shakllangan jarayon sifatida tahlil qilishadi. Ammo bu holatni faqatgina so‘nggi yillardagi faollik uchun foydalanish to‘g‘ri bo‘lar edi. Chunki dastlabki 25 yilni mintaqada keng hamkorlik aloqalarini rivojlantirgan davlatlar sifatida talqin etib bo‘lmaydi. Tashqi aloqalar asosan bir yo‘nalishda bo‘lganligi g‘arb davlatlari yoki boshqa mintaqalar bilan aloqalar faqat muayyan davrda rivojlangani, uzoq vaqt davom etmagani yoki muayyan sabablarga ko‘ra to‘xtav qolganini ko‘rish mumkin. Tashqi aktorlar va turli formatlarning

mintaqaviy siyosatga o‘z ta’sirini o‘tkazgani to‘g‘ri. Zero, mintaqa davlatlari Yevroosiyo iqtisodiy ittifoqi, Shanxay hamkorlik tashkiloti, Iqtisodiy hamkorlik tashkiloti va turli C5+ formatlarida qatnashdi. Buni inter-regionalizm nuqtayi nazaridan ifodalanganda, bir nechta ustma-ust platformada ishtirok etish davlatlarga moslashuvchan tashqi siyosat yuritish imkonini berishini ko‘rish mumkin. Hozirgi yangilik shundaki, tashqi platformalar bilan bir qatorda ichki Markaziy Osiyo koordinatsiyasi ham mustahkamlanmoqda. Buni boshqacha aytganda mintaqaviy tashqi aloqalarning bir nuqtadan tizimlashtirish sifatida ko‘rsatish mumkin. Manbalarda aynan shu jarayonni “regionalizmning qayta tiklanishi” deb atashadi. Bu tahlilida uchta amaliy belgi ko‘zga tashlanadi: mintaqa ichki savdosining o‘sishi, chegara nizolarini hal qilish va transregional infratuzilma loyihalarining ko‘payishidir. Shuningdek, ichki siyosiy avlod almashinuvi va tashqi muhitdagi o‘zgarishlarni ham muhim omil sifatida e’tirof etiladi. Bundan tashqari, hozirgi mintaqaviy yo‘lni moslashuvchan va pragmatik deb baholanadi. Bu yo‘l yagona tashqi kuchga bog‘lanishni emas, bir nechta yo‘nalishda aloqalarni kengaytirishni ko‘zda tutadi. Shu sababli Markaziy Osiyodagi yangi regionalizmni “integratsiya bor yoki yo‘q” degan ikki variantli savol bilan o‘lchash cheklangan yondashuvdir. To‘g‘riroq savol boshqa: davlatlar umumiy muammolarni qaysi mexanizmlar orqali hal qilmoqda va bu mexanizmlar qanchalik barqaror tus olyapti? Bugungi tajriba regionalizm kuchli supranatsional tashkilotsiz ham rivojlanishi mumkinligini ko‘rsatmoqda.

Yangi bosqichning boshlanishini O‘zbekiston tashqi siyosatidagi o‘zgarishdan ajratib bo‘lmaydi. Khasanov (2021) O‘zbekistonning yangi mintaqaviy siyosatida ishonch, yaxshi qo‘shnichilik va pragmatizm asosiy tamoyilga aylanganini qayd etadi. Uning fikricha, O‘zbekistonning Qozog‘iston, Qirg‘iziston, Tojikiston va Turkmaniston bilan ikki tomonlama munosabatlaridagi sifat o‘zgarishi umumiy mintaqaviy hamkorlikni ham harakatga keltirdi.

Bu xulosani keyingi ilmiy tadqiqotlar ham qo‘llab-quvvatlashini ko‘rishimiz mumkin. Ikki ma’muriyat davridagi yondashuvlarni qiyoslaydi. Xususan, 2010-yillarning oxiridan O‘zbekiston siyosatida ko‘p tomonlama mintaqaviy hamkorlikka ochiqlik kuchayganini ko‘rsatadi. Bunday burilishni esa faqat rahbar shaxsiyati bilan izohlash yetarli emasligini ta’kidlanadi. Iqtisodiy ochiqlik, tranzitga ehtiyoj, mintaqaviy xavfsizlik va qo‘shnilar bilan barqaror aloqalar ichki rivojlanish uchun zarur bo‘lib qoldi.

Mintaqa siyosiy muloqotidagi eng muhim yangilik Markaziy Osiyo davlatlari rahbarlarining Maslahat uchrashuvlari bo‘ldi. Format 2017-yilda taklif qilindi. Birinchi uchrashuv 2018-yilda Ostonada o‘tkazildi. Keyingi uchrashuvlar Toshkent, Avaza, Cho‘lponota, Dushanbe va Ostona shaharlarida davom etdi. Muhim jihat shundaki, bu platforma tashqi tashkilot tomonidan boshqarilmaydi. Kun tartibini mintaqaning o‘zi belgilaydi. Bu formatga Ozarbayjonning qo‘shilish istagini bildirgani, mintaqa esa bunga hayrixoh ravishda rasmiy Bakuni ishtirokchilar safiga qo‘shish orqali javob qaytargani bu mintaqaning har qachongidanam siyosiylashgani hamda dolzarb ahamiyat kasb etib borayotganligini ta’kildab o‘tish lozim

Bu formatning evolyutsiyasiga nazar soladigan bo‘lsak 2019-yilda uchrashuvlar uchun qoidalar va ekspert muloqoti shakllandi. 2021-yildan ayollar muloqoti kabi yangi yo‘nalishlar paydo bo‘ldi. 2022-yilgi Cho‘lponota uchrashuvida XXI asrda Markaziy Osiyoni rivojlantirish maqsadlarida do‘stlik, yaxshi qo‘shnichilik va hamkorlik to‘g‘risidagi shartnoma imzolandi. 2023-yilda Dushanbeda Milliy muvofiqlashtiruvchilar kengashi tashkil etildi. 2024-yilda “Markaziy Osiyo - 2040” konsepsiyasi qabul qilindi. 2025-2027-yillar uchun hamkorlik va sanoat kooperatsiyasi bo‘yicha yo‘l xaritalari ishlab chiqildi. Bu qadamlar formatning asta-sekin tizimga aylanayotganini ko‘rsatadi.

Bu jarayonda bir muhim chegarani ko‘rish kerak. Mintaqa davlatlari hozircha milliy tuzilmalardan yuqori turadigan organ yaratishni maqsad qilmayapti. Siyosiy

qarorlar ko‘proq siyosiy kelishuv va ixtiyoriy ijroga tayanadi. Shu sababli yangi regionalizmning kuchi qat’iy majburiy qoidalar orqali emas balki ustunligi muntazam muloqotda, rahbarlar darajasidagi siyosiy ishonchda va kelishilgan loyihalarni amaliyotga o‘tkazishdadir. Tadqiqotchilar bu holatni “new regionalism synergy” sifatida ko‘radi. Bunda fikrlar sodda g‘oya atrofida birlashmoqda. Unga ko‘ra besh davlat o‘rtasidagi munosabatlar ilgari hech qachon bo‘lmagan darajada yaqinlashdi. Bu hamkorlik faqat siyosiy bayonotlarda, maslahatlashuv uchrashuvlari yoki nutqlarda qolib ketgani yo‘q. Turli sohalar, fan-ta’lim, turizm, savdo, elektr energiyasi, suv, transport, sanoat kooperatsiyasi va investitsiya fondlari kabi konkret sohalarda hayotning amaliy bosqichiga ko‘chib bormoqda. Bu esa mintaqaning ahamiyatini oshirish bilan birga, dunyoda bu geografik hududga nisbatan qiziqishning kuchayishiga sabab bo‘lmoqda. Shu bilan birgalikda mintaqaning xalqaro munosabatlarning subyekti sifatidagi darajasini ham belgilab beradi.

Markaziy Osiyo davlatlari tashqi hamkorlar bilan tobora ko‘proq C5+1 yoki “Markaziy Osiyo plyus” formatida muloqot qilmoqda. AQSH, Yevropa Ittifoqi, Xitoy, Rossiya, Yaponiya, Janubiy Koreya, Hindiston, Ko‘rfaz davlatlari va boshqa hamkorlar besh davlat bilan umumiy formatlar yaratgan. Ushbu formatlarni “external regionalism” nuqtayi nazaridan tahlil qilganda, 2019-2025-yillarda ko‘plab C5+ formatlari moslashuvchan diplomatik dialogdan sammit darajasidagi va sohaviy yo‘nalishlarga ega tuzilmalarga o‘ta boshlagani, ayrim formatlarda transport, energetika, yashil iqtisodiyot va raqamlashtirish bo‘yicha ishchi mexanizmlar shakllanganini ko‘rish mumkin. Shu jarayon tashqi hamkorlarni Markaziy Osiyoni beshta alohida bozor emas, ma’lum darajada yaxlit mintaqaviy sherik sifatida ko‘rishga undamoqda. 2025-yil oxiridagi rasmiy ma’lumotda dunyoning yetakchi davlat va birlashmalari bilan o‘ndan ortiq “Markaziy Osiyo plyus” formatlari faol ekani qayd etilgan. O‘sha yilning o‘zida Markaziy Osiyo-Yevropa Ittifoqi, Markaziy Osiyo-Xitoy, Markaziy Osiyo-Rossiya va Markaziy Osiyo-AQSH sammitlari

o‘tkazilgani ko‘rsatish mumkin. Bu ko‘rsatkich mintaqaga tashqi qiziqish oshganini bildiradi. Bundan ham muhim tomoni, besh davlat tashqi hamkor bilan bir stol atrofida umumiy masalalarni muhokama qilish tajribasini to‘plamoqda. Avval regionalism tashqi ta’sir orqali bilvosita boshqarilgan bo‘lsa hozir esa ushbu regionalizmda ichki koordinatsiya dominant rolini bajarmoqda. 2022-yilda Markaziy Osiyo davlatlarining ko‘p tomonlama formatlarda hamkorligi bo‘yicha konsepsiya qabul qilindi. Bu hujjat tashqi platformalarda pozitsiyalarni muvofiqlashtirishni nazarda tutadi. Natijada C5+ formati faqat tashqi kuchning diplomatik vositasi bo‘lib u Markaziy Osiyo davlatlarining kollektiv muzokara qobiliyatini ham oshirdi deyishimiz mumkin. Bu jarayonni ortiqcha idealizatsiya qilish kerak emas. Besh davlatning Rossiya, Xitoy, G‘arb, Turkiya va boshqa aktorlarga nisbatan manfaatlari doimo bir xil emas. Har bir davlat ko‘p vektorli tashqi siyosatini saqlaydi. Yangi regionalizmning o‘ziga xosligi ham shunda. U umumiy tashqi siyosat yaratishga urinmaydi. U umumiy manfaat mavjud bo‘lgan masalalarda koordinatsiyani kuchaytiradi.

Adabiyotlarda Markaziy Osiyo regionalizmining bir necha asosiy xususiyati ko‘rsatib o‘tiladi. Bular suverenitetga tayangan regionalizm. Davlatlar hamkorlik aloqalarini vakolatini milliy darajadan yuqoriga topshirishmagan holatda davom ettiradi. Keyingisi - funksional pragmatizm. Hamkorlik katta ideologik loyiha bilan emas, aniq muammolar bilan harakatlanmoqda. Chegarani ochish, yuk tashishni tezlashtirish, elektr energiyasini almashish, suv manbalaridan kelishilgan foydalanish, temir yo‘l qurish kabi vazifalar mintaqaviy yaqinlashuvni real mazmun bilan to‘ldiradi. Shuningdek, ikki tomonlama va ko‘p kelishuvlar mintaqaviy tizimning faoliyatiga ta’sir qilmaydi. Ular ko‘pincha umumiy ishonch ko‘priklarini yaratishdagi muhim vazifasini bajaradi. Navbatdagi xususiyat - institutsionallashuv. Markaziy Osiyoda vazirlar va ekspertlar darajasidagi muloqot, konsepsiya va yo‘l xaritalari institutga xos funksiyalarni bajara boshladi. Siyosiy institutsionallashuv har doim katta bino bilan chegaralanmasada doimiy tizim atrofida qurilishi uning davomiyligi bu jarayonning

sifat ko‘rsatkichi o‘laroq baholanadi. Beshinchi xususiyat - ochiq regionalizm. Mintaqa o‘zini tashqi dunyodan yopmayapti. Aksincha, C5+ formatlari orqali tashqi hamkorlarni ko‘paytirmoqda. Bu esa ishlari ichki va tashqi regionalizm bir-biriga bog‘langanini ko‘rsatadi. Markaziy Osiyo ichki birlikni tashqi aloqalarni muzokara imkoniyatini oshirish uchun ishlatmoqda.

Oltinchi xususiyat - regionalizmning natijaga yo‘naltirilishi. Savdo 11 milliard dollarga yaqinlashgani, O‘zbekistonning mintaqa bilan savdosi 7,2 milliard dollarga yetgani, o‘zaro investitsiyalar 5,6 baravar oshgani va mintaqa ichki turizmining 80 foizdan yuqori ulushi siyosiy yaqinlashuvning amaliy oqibatlarini ko‘rsatadi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Bourdais Park, J. (2025). Competitive institutionalized cooperation in Central Asia and externally guided regionalism. Central Asian Survey, 1-22. https://doi.org/10.1080/02634937.2024.2441803

2. Costa Buranelli, F. (2025). Central Asian regionalism in the 1990s: Order, familiarization, and spotlighting. Post-Soviet Affairs, 41(4), 348-375. https://doi.org/10.1080/1060586X.2025.2516188

3. Costa Buranelli, F. (2026). The Consultative Meetings of Heads of State of Central Asia: Local norms, institutions and the fundamentals of regional order. International Affairs, 102(1), 121-145. https://doi.org/10.1093/ia/iiaf225

4. Dannreuther, R. (2026). The revival of regionalism in Central Asia. Central Asian Affairs, 13(1), 92-117. https://doi.org/10.30965/22142290-bja10081

5. Grishin, V. (2025, November 24). Central Asia in transition: New regionalism, geopolitical realignment, and the post-carbon future (PONARS Eurasia Policy Memo No. 949). PONARS Eurasia.

6. Izteleuova, Y. (2026). Coordination of bilateral and multilateral cooperation in Central Asia under conditions of polycrisis. Frontiers in Political Science, 8, 1814186. https://doi.org/10.3389/fpos.2026.1814186

7. Karami, J., & Mozaffari-Falarti, M. (2026). Inter-regionalism and strategic adaptation in Central Asia: Economic development and geopolitical resilience in a multipolar order. Central Asian Survey. Advance online publication. https://doi.org/10.1080/02634937.2026.2629585

8. Khasanov, U. (2021, November 1). New regionalism in Central Asia. Valdai Discussion Club. https://valdaiclub.com/a/highlights/new-regionalism-in-central-asia/

9. Khasanov, U. (2025, March 4). Synergy of new regionalism. Valdai Discussion Club. https://valdaiclub.com/a/highlights/synergy-of-new-regionalism/

10. Kobilov, F. (2025). From geopolitical pendulum to regional player: Uzbekistan's regional foreign policy following the leadership change in 2016. Central Asian Survey, 1-21. https://doi.org/10.1080/02634937.2025.2482186

11. Masharipov, J., & Khasanov, U. (2025). "Uzbekistan-2030": A dual pursuit of economic diplomacy and regional integration for sustainable development in Central Asia. Journal of Central Asian Studies, 23(3), 74-89. https://doi.org/10.52536/3006-807X.2025-3.004

12. Mirziyoyev, S. M. (2025, November 13). Markaziy Osiyo yangi davr ostonasida. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining rasmiy veb-sayti. https://president.uz/oz/lists/view/8653

13. Mukasheva, Z., Akhmedyanova, D., & Nogayeva, A. (2026). Four voices, one region: Local and Western media coverage of regional relations in Central Asia. Central Asian Survey. Advance online publication. https://doi.org/10.1080/02634937.2025.2611917

14. Muratalieva, Z. (2026). Unpacking regionalism in Central Asia: Internal and external C5+1 formats. Central Asian Affairs, 13(1), 64-91. https://doi.org/10.30965/22142290-bja10080

15. Ostrowski, W., & Malikov, A. (2025). Energy rents, remittances and regional trade cooperation in Central Asia. Europe-Asia Studies, 77(5), 798-827. https://doi.org/10.1080/09668136.2025.2512119

16. Reuters. (2025, March 13). Kyrgyzstan and Tajikistan sign deal to end long-running border dispute. Reuters. https://www.reuters.com/world/asia-pacific/kyrgyzstan-tajikistan-sign-deal-end-long-running-border-dispute-2025-03-13/

17. Utebayev, A., Orinbay, K., Mukhamedkaziy, N., & Bagdat, A. (2026). Uzbekistan's regional turn: Comparing Karimov and Mirziyoyev's approaches to Central Asia. Eurasian Research Journal, 8(3), 297-324.

18. Yelmagambetova, G., Dalelkhan, A., & Lodhi, R. N. (2025). Bibliometric analysis of thematic networks in Central Asian integration literature: Trends, clusters, and emerging research directions. Journal of Central Asian Studies, 23(1), 95-111. https://doi.org/10.52536/3006-807X.2025-1.006